

# TASVIRIY SAN'AT TURLARI VA UNI KO'RGAZMALI SHAKLLARDA AKS ETTIRISH

***Rahimov Azizbek Yaxshiboyevich,***

***A.Qodiriy nomidagi JDPU o'qituvchisi, Jizzax, O'zbekiston***

***e-mail: rahimovazizbek09@gmail.com***

**Аннотасија.** *Tasviriy san'at - rangtasvir, haykaltaroshlik, grafikani birlashtirgan nafis san'at turi; voqelikni uning osongina ilg'ab olinadigan fazoviy shakllarda ko'rgazmali obrazlarda aks ettiradi. Tasviriy san'at turlari o'z xususiyatlariga qarab real borlikni ob'yektiv mavjud sifatlari — hajm, rang, fazo, shuningdek, predmetning moddiy shakli va nurhavo muhiti, harakat va o'zgarishlari xissini yaratadi, bunda tasvirning hissiy konkretligidan illyuzionizmga o'tish mumkin. Tasviriy san'at faqat ko'rish mumkin bo'lgan narsalarnigina tasvirlab qolmay, balki asarlarida hodisalarning vaqtinchalik rivoji, uning u yoki bu qismi (fabula), erkin hikoyanavislik, dinamik harakatlarni ham aks ettirib, dunyoni g'oyaviy o'zlashtirish imkoniyatlarini kengaytiradi.*

**Калит со'злар:** *bog', park, istirohat, kafe, ijtimoiy binolar, o'yingohlar*

**Аннотация.** *Изобразительное искусство — вид изящного искусства, сочетающий в себе живопись, скульптуру, графику; оно отражает реальность в зрительных образах в ее легко узнаваемых пространственных формах. Виды изобразительного искусства в зависимости от своих характеристик создают ощущение реального существования, объективно существующих качеств - размера, цвета, пространства, а также материальной формы и световой атмосферы предмета, движения и изменения, в данном случае от эмоциональная конкретность изображения к иллюзионизму. может пройти. Изобразительное искусство не только описывает то, что можно увидеть, но и отражает временное развитие событий, ту или иную его часть (fabula), свободное повествование, динамические движения в своих произведениях, расширяя возможности идейного освоения мира.*

**Ключевые слова:** *сад, парк, отдых, кафе, общественные здания, стадионы.*

**Annotation.** *Fine art is a type of elegant art that combines painting, sculpture, graphics; it reflects reality in visual images in its easily recognizable spatial forms. Types of visual arts, depending on their characteristics, create a feeling of real existence, objectively existing qualities - size, color, space, as well as the material form and light atmosphere of the object, movement and changes, in this case, from the emotional concreteness of the image to illusionism.*

*can pass. Fine art does not describe only what can be seen, but also reflects the temporal development of events, one or another part of it (fabula), free storytelling, and dynamic movements in its works, expanding the possibilities of ideological mastery of the world.*

**Keywords:** *garden, park, recreation, cafe, public buildings, stadiums.*

Tasviriy san'at insonning ruhiy qiyofasini, uning o'zgaralar bilan o'zaro munosabatlarini, tasviriy holatning psixologik va emotsional mazmunini ham yoritadi. Ba'zan mavjud bo'lmagan, rassom tasavvurining mahsuli bo'lgan obrazlarni ham yuzaga keltiradi. Insoniyat tarixidagi turli davrlarni aks ettiradi. Davrning faqat hissiy holatigina emas, balki uning g'oyaviy mohiyati, siyosiy, falsafiy, estetik va etik g'oyalari ham Tasviriy san'atning mazmuniga aylanadi. Tasviriy san'at obrazlarining ko'rgazmaliligi rassomga hayotning muayyan hodisasiga o'z munosabatini yuksak darajada ifodalashga imkon beradi; shu tufayli hayotni bilishning faol shakli sifatida jamiyatning ijtimoiy hayotida, ma'lum tizimning ommaviy ongini qaror topishida muxim rol o'ynaydi. Olamni bilishning shakllaridan biri sifatida ijtimoiy ongni shakllantiradi hamda xalq orzuumidlarini ifodalash shakli sifatida ham katta ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy sharoitda umumgoyaviy kurashlarning bir bo'lagi sifatida namoyon bo'ladi.

Insoniyatning mehnat faoliyati, e'tiqodlari, diniy qarashlari zaminida Tasviriy san'at paydo bo'lgan va rivojlangan. Qadimgi tosh asrining ilk bosqichidayoq inson o'z ehtiyoji uchun zarur bo'lgan buyumlarni yaratish, libos, turar joylar tayyorlash jarayonida qulaylik, maqsadga muvofiqlik tushunchalari rivojlanib, ritm, simmetriya hissi ortdi. Marxumlar bilan vidolashuv, dafn marosimlarida marxumlar qabriga turli buyumlar ko'yish odatlarida Tasviriy san'atning fazoviy fikr yuritish, fazoviylik, kenglik, olam tushuncha va tasavvurlari shakllanib bordi. Tosh, suyak, keyinchalik sopoldan ishlangan turli shakl va haykallarda, qoyatoshlarga, gor devorlariga chizilgan, rangda ishlangan rasmlarda ibtidoiy insonning mehnat faoliyati, dunyo, borliq haqidagi o'yxayollari, o'zga dunyo to'g'risidagi tasavvurlari mujassamlashgan.

Ijtimoiy jamoa tuzumining inqirozi hamda mehnat taqsimotining yuzaga kelishi, aqliy mehnat jismoniy mehnatdan ajralishi Tasviriy san'at rivojida muhim

o‘rinni egallaydi. Tasviriy san‘at inson faoliyatining ma‘lum sohasiga aylanib davr ruhiyati, uning siyosiy, ma‘naviy va nihoyat estetik qarashlarini aks ettiruvchi manbaga aylandi. Qadimgi Sharq mamlakatlarida, jumladan Qadimgi Misrda Tasviriy san‘at insonning dunyo, borliq to‘g‘risidagi tushuncha va tasavvurlarini, xudolar darajasiga ko‘tarilgan fir‘avnlarni ulug‘lash quroliga aylandi. Yunonistonda Tasviriy san‘at jamiyatning erkin fuqarosiga qaratilgan va antik mifologiyaning g‘oyalarini plastik moddiylashtirilgan ko‘rinishida kamol topdi, Qadimgi Rim realizmida murakkab inson jismi namoyon bo‘ldi.

Insoniyat sivilizatsiyasining muhim o‘choqlaridan hisoblangan O‘rta Osiyo, uning ajralmas qismi O‘zbekiston hududida ham Tasviriy san‘at ijtimoiy hayotda muhim o‘rin egallab, davr hamda inson tafakkuridagi nozik o‘zgarishlarni o‘zida aks ettiradi. Zarautsoy rasmlari, Xorazm, Sug‘d, Baqtriya mahobatli haykal va rangtasvirlari shuning dalilidir.

O‘rta asrlar Tasviriy san‘ati uslub jihatidan rangbarang, turlari keng va xilmaxil, bu davrda mahobatli haykaltaroshlikning nodir namunalari yuzaga keldi. Hindiston, Indoneziya, Hindixitoy o‘lkalarida betakror haykaltaroshlik asarlari yaratildi. O‘rta Sharq mamlakatlarida miniatyuraning o‘ziga xos turi yaratilgan bo‘lsa, O‘rta asr Yevropa madaniyatida haykaltaroshlik va rassomlik diniy e‘tiqod va dunyoqarashlar zaminida o‘ziga xos yo‘nalish va, mazmun kashf etdi, ikona san‘ati ravnaq topdi. Roman uslubi va gotikaaa barpo etilgan me‘moriy obidalarda san‘atlar sintezining ajoyib namunalari yaratildi.

13—16-asrlar Tasviriy san‘atida dunyoviy mavzu va qarashlarning kuchayib borishi tasvirlarda borlikda mavjud shakl va ko‘rinishlarning ortishi bilan belgilanadi. Shu harakat va taraqqiyotda Tasviriy san‘atning qonunqoidalarini ilmiy asosda o‘rganishga qiziqish ortdi. Optika, anatomiya, perspektiva, nursoya nazariyasiga oid muhim tadqiqotlar qilindi. Moybo‘yoq texnikasi mukammallashti, ijodkorlar antik san‘at an‘analariga tayangan holda Uyg‘onish davri insonparvarlik g‘oyalarini moddiylashtirishga harakat qildilar.

17—19-asrlarda Tasviriy san‘at uslub jihatidan rangbarang, milliy mahalliy maktablar rivoji bilan san‘at olamining kengayishi boshlandi. Bu davrda, ayniqsa,

monumental san'at o'zining haqiqiy gullash davrini boshidan kechirdi, rassomlar, me'morlar, haykaltaroshlar, hunarmandlar san'atlar sintezining ajoyib namunalarini yaratdilar. Bu yutuklarda rassom va haykaltaroshlarning o'rnini aloqdda. Tasviriy san'at tur va janrlari ko'paydi, realistik yo'nalishdagi janrlar (portret, manzara, natyurmort, maishiy janr) yetakchi o'ringa chiqa boshladi. Uyg'onish davri Tasviriy san'atiga xos bo'lgan vazminlik, chiziq, rang, faktura mutanosibligi o'rnini jo'shqin shakl va ranglar o'yini egallab bezakdorlik xususiyatlarining ortishi kabilar kuzatiladi. 17-asrdan Tasviriy san'atda klassitsizm yo'nalishi hukm surgani holda borliqni o'ziga o'xshash shakllarda aks ettiruvchi asarlar yaratilishi ortib bordi. Akademik ta'lim tizimining yo'lga qo'yilishi professor san'at maktablarining taraqqiyotini ta'minladi. Mumtoz (klassik) realistik (akademik) san'at uslublaridan chekinish, noan'anaviy uslublar izlashga intilish boshlandi. Bu hol impressionizm, postimpressionizm va boshqa uslublarning shakllanishi va rivojlanishida o'z ifodasini topdi.

20-asr Tasviriy san'ati murakkab va ziddiyatli. Bir tomonda klassik realistik san'atning talab va uslublari saklangani holda uni ifodaviyligiga e'tibor qaratilishida, ishlangan har bir obrazni chuqur majoziy mazmunlar bilan to'ldirishga intilish kuzatilsa, aksincha noan'anaviy Tasviriy san'at uslubida yangi ifoda va tasvir vositalarini topishga, butunlay yangicha san'at yaratishga intilish xarakati kuchliligi namoyon bo'lmoqda.

O'zbekiston Tasviriy san'ati jahon hamjamiyatida sodir bo'layotgan jarayonlar bilan hamnafas bo'lib, har bir ijodkor o'z qarash va kechinmalarini yangicha uslub va shakllarda ifoda etishga intilishi bilan xarakterlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I. Karimov tashabbusi bilan Toshkent shahrida O'zbekiston tasviriy san'ati galereyasi barpo etilib 2004 yil avgust oyida ochildi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. - T.: O'zbekistan, 2017. - 488 b.

2. Mirziyoev SH.M. Tanqidiy taxlil, qatiy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak.- T.:O'zbekiston, 2017.-104 b.
3. Mirziyoev SH.M. Erkin va farovon, demokratok O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. - T.: O'zbekiston, 2016. - 56 b.
4. “2011-2015 yillarda madaniyat va istiroxat bog'larining moddiy texnika bazasini mustahkamlash va ularning faolyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari dasturini tasdiqlash to'g'risida” O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2010 yil 29 dekabrda 322 son qarori /<http://www.lex.uz/Bivalseva> M.V. Ilyustriruem skazki s radostyu. / “Nachalnaya shkola”. №1 —2003. S. 59-62.
5. Vilde T.N. Ilyusgirirovaniye narodnix skazok na urokax tematiceskogo risovaniya / “Nachalnaya shkola”. №1 — 2003. S. 57 - 59.
6. Golubeva I. Kniga i obraz. Formirovaniye individualnogo xudojestvennogo yazja / jurnal “Iskusstvo v shkole”. 2009. № 3. S. 14 - 18.
7. Ibragimov A., Sulaymonov A. Kitobat san'atiga oid terminlarning izohli-illyustrativ lugati. - Toshkent: “Fan”, 2007. - 80 b.
8. Kamoliddin Behzod. Albom. Tuzuvchilar: E.Ismoshyuva, 3. Rahimova. - Toshkent: “San'at” nashriyoti, 2000. -40 b.
9. Madraimov A. O'zbekiston miniatyura san'atini o'rganish muammolari / J. “San'at”. 2015,2-son. - 25 — 27-6.
10. Jirnov A.D. Iskustvo parkostroeniya. L'vov,1977. -varoq 28.